




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

FILOLOGIYA FANLARI

BUXOROLIK SHOIRALAR IJODIDA DENDRAR OBRAZLARNING BADIY-ESTETIK TALQINLARI

Rustamova Gavhar Bahron qizi,

Buxoro davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

g.b.rustamova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro adabiy muhitining iste'dodli vakillari – zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan shoirlar ijodida dendrar obrazlar tizimining badiiy-estetik tabiati va lirik-falsafiy semantikasi tadqiq etiladi. Halima Ahmedova, Nodira Afoqova, Ibodat Rajabova va Laylo Sharipova she'riyatidagi “daraxt”, “tol”, “anor”, “zardolu”, “baqaterak” kabi etno-madaniy va lirik dendrar simvollar inson ruhiyati, dendrar ekspressionizm, hamda inson va tabiat bog'liqligi kontekstida qiyosiy-analitik tahlilga tortiladi. Ishda an'anaviy she'riyatdagi obrazlarning modernistik transformatsiyasi, tabiat unsurlarini dinamik shaxslantirish hamda inson kechinmalarini tasvirlashda dendrar lirizm va ekopoetik ko'lamning o'rni matniy tahlillar orqali ochib berilgan. Maqola xulosalari Buxoro adabiy muhitidagi xotin-qizlar lirikasining konseptual taraqqiyot tamoyillarini hamda o'zbek adabiyotshunosligida dendrar poetikaning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro adabiy muhiti, shoirlar, dendrar obraz, badiiy ko'chim, shaxslantirish, dendrar ekspressionizm, mifopoetik ramz.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДЕНДРАРНЫХ ОБРАЗОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ПОЭТЕСС БУХАРЫ

Рустамова Гавхар Бахрон кизи,

докторант Бухарского государственного университета,
доктор философии по филологии (PhD), доцент

g.b.rustamova@buxdu.uz

Аннотация. В данной статье исследуются художественно-эстетическая природа и лирико-философская семантика системы дендрарных образов в творчестве талантливых представительниц Бухарской литературной среды — поэтесс, занимающих особое место в современной узбекской поэзии. В контексте человеческой психики, дендрарного экспрессионизма, а также взаимосвязи человека и природы подвергаются сравнительно-аналитическому анализу такие этнокультурные и лирические дендрарные символы, как «дерево», «ива», «гранат», «абрикос», «тополь» в поэзии Халимы Ахмедовой, Нодиры Афоковой, Ибодат Раджабовой и Лайло Шариповой. На основе текстуального анализа в работе раскрываются модернистская трансформация образов традиционной поэзии, динамическая персонификация элементов природы, а также роль дендрарного лиризма и экопоэтического масштаба в отображении человеческих переживаний. Выводы статьи служат определению концептуальных принципов развития женской лирики в Бухарской литературной среде и обогащению теоретических основ дендрарной поэтики в узбекском

литературоведении.

Ключевые слова: Бухарская литературная среда, поэтессы, дендрарный образ, художественный троп, персонификация, дендрарный экспрессионизм, мифопоэтический символ.

ARTISTIC-AESTHETIC INTERPRETATIONS OF DENDRAL IMAGES IN THE WORKS OF BUKHARA POETESSES

Rustamova Gavhar Bahron qizi,

PhD student at Bukhara State University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

g.b.rustamova@buxdu.uz

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of technological and research competence, which is considered an important component of the modern education system. Based on the competency-based approach, the essence and structural composition of technological and research competence, as well as the goals, objectives, and principles of its development, are revealed. In the course of the study, it is substantiated that the integration of technological activity and scientific research activity is a significant factor in increasing the effectiveness of the educational process. The conclusions obtained may serve as a methodological basis for organizing innovative activities and improving the quality of education in pedagogical practice.

Keywords: technological competence, research competence, competency-based approach, innovative education, pedagogical technologies, scientific activity, fragment, digital platform, technological tool.

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda borliq va inson munosabatlarini yangicha falsafiy-estetik tamoyillar, xususan, ekopoetika va badiiyat kesishmasida tadqiq etish yetakchi tamoyillardan biriga aylandi. Badiiy matnda tabiat unsurlari, xususan, dendrar obrazlar tizimi lirik qahramonning ichki kechinmalari, ijtimoiy-ekologik fojialar va ruhiy holatini aks ettiruvchi faol subyektga aylandi. G'arb adabiyotshunosligida tabiat va adabiyot munosabatlarini tizimlashtirgan Sherill Glotfelti ta'kidlaganidek: “Ekopoetika – bu adabiyot va jismoniy muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdir. U adabiy tadqiqotlarga biotsentrik dunyoqarashni olib kiradi” [3].

Buxoro adabiy muhiti o'zining tarixiy-madaniy ildizlari va intellektual salohiyati bilan o'zbek xotin-qizlar lirikasida alohida mavqega ega. Ushbu mintaqaviy lirik tafakkurning yetakchi vakillari bo'lgan Halima Ahmedova, Nodira Afoqova, Ibodat Rajabova va Laylo Sharipova ijodida dendrar obrazlar tizimi badiiy transformatsiyaga uchragan. Mazkur maqolada Buxorolik ijodkor ayollar she'riyatidagi dendrar ramz va obrazlar an'anaviy lirik tildan farqli ravishda, dendrar ekspressionizm va ekofeministik uyg'unlik kontekstida tahlilga tortiladi.

Ijodkor ko'pincha o'z istetik idealini, badiiy g'oyasini tabiatdan olingan ramzlar vositasida ifoda qiladi. Har bir shoirning poetik olamini ko'rsatadigan betakror obrazlari bo'ladi. “Na'matak gullari” Oybekdan darak bersa, “O'rik gullaganda” – Hamid Olimjon ta'biri, “Majnuntol tagiga o'tqazing meni” esa Mirtemirning shoh satri sanaladi. Bunday obrazlar gohida shoir lirik tafakkurini belgilovchi xususiyatidek taassurot qoldiradi. H.Ahmedova she'rlarida esa “daraxt” obrazi ko'p uchraydi. Goh “Gullashni daraxtga o'rgatgan” lirik qahramon, gohida “Sodiq va mard daraxtlarning yoniga” ketgim kelar deya nola qiladi. Uning she'rlarida daraxtlar lirik qahramon bilan tillashadilar, xiyonat nima bilmaydilar.

Muhokama. Halima Ahmedova she’rlari tiniq, jarangdor ohanglarda ifodalangani bois kitobxonni o’ziga mahliyo etadi. Shoiri ijodida dendrar obrazlar zimmasiga yuklanayotgan ma’nolar ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda ezgulik ramzi sifatida namoyon bo’ladi. Xususan, shoiraning “O’g’limga darsliklar” turkumidan o’rin olgan “Tabiat darsi” she’ri onaning o’z farzandiga dendrar olam orqali berayotgan o’ziga xos ma’naviy-axloqiy o’gitlari va hayotiy falsafasini aks ettiradi. Lirik qahramonning ta’kidlashicha, har bir daraxtning o’z qalbi bor va ular odamlar kabi soxtalikdan yiroq. Insonlar hayotda bir-birlariga nisbatan xiyonat qilishi, aldashi yoki va’dasida turmasligi mumkin bo’lgan bir vaziyatda, daraxtlar doimo sadoqatli bo’lib qoladi. Ona o’g’lini hayotiy qiyinchiliklar qarshisida jasur bo’lishga, g’am-alamlarni mardona yutishga va eng muhimi, daraxtlardan asriy sadoqat hamda olijanoblik sirlarini o’rganishga chaqiradi:

*Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,
Tikilganim sari o’sadi ko’nglim.
Ularga quloq sol, ularni tushun,
Daraxtlar aldashni bilmaydi, o’g’lim. [6]*

Quyidagi parchada esa lirik qahramon o’zini metafora va tashxis san’ati orqali to’g’ridan-to’g’ri daraxtga o’xshatadi. Biroq u shunchaki daraxt emas, “*egilmas daraxt*”. Bu irodaning bamisoli toshday mustahkamligi, dunyoning o’tkinchi tashvishlari, tazyiqlar yoki mayda g’arazlar qarshisida bosh egmaslik, o’z e’tiqodiga sadoqat ramzidir:

*Daraxt edim, egilmas daraxt,
O’sardim nur emganim sayin.
Yashil dunyo sog’inchlarida
Bir kun xazon bo’lmog’im tayin. [5]*

“Yashil dunyo” ramzi bir nechta ma’no qatlamlariga ega. **Birinchidan**, daraxtning o’z tabiiy vataniga, yam-yashil borliqqa bo’lgan sog’inchi bo’lsa, **ikkinchidan**, mutloq go’zallik, poklik, g’uborsiz va ideal olam metaforasidir. Lirik qahramon real dunyoning soxtaligi, quruqligi yoki tushkunligidan charchagan. Uning ruhi “yashil”, ya’ni doimiy barhayot, pokiza va ilohiy sarmastlik olamini qo’msaydi. “Xazon bo’lish” o’lim, umrning tugashi va jismoniy tanazzulning an’anaviy dendrar timsolidir. Biroq Halima Axmedova ijodida bu hodisa tabiat va qismat qonuniyatini mardona tan olish sadosi sifatida yangraydi. Daraxt esa qahramonning har qanday vaziyatida (baxt yo baxtsizligida) unga darddosh, yelkadosh:

*Daraxt, menga boqma achinib,
Baxtsizmanmi, baxtning qasrida
Men o’zimni shunday yupatay
Yig’layotgan osmon ostida.
Yoki
Ko’z yoshingni artib ol deya,
Xazonini tutadi daraxt.
Meni kuzga topshirib qo’yib,
Sen qaylarda qolib ketding Baxt? [5]*

Lirik qahramon o’z hayotida baxtni yo’qotgan va chuqur hasrat ichida qolgan. Bu og’ir damda unga insonlar emas, balki daraxt hamdardlik ko’rsatadi. u o’zining to’kilayotgan xazonini yig’layotgan qahramonga bamisoli dastro’mol kabi uzatib, uning ko’z yoshlarini artishga urinadi. To’rtlikning birinchi ikki satrida daraxt butunlay shaxslantiriladi: “*Ko’z yoshingni artib ol deya, / Xazonini tutadi daraxt*”. daraxt insonga achinadigan, uning dardi bilan yashaydigan mehribon va olijanob bir do’st sifatida gavdalantiriladi. Shoiri inson ruhiyatini

bevosita tabiat bilan bog'lab, qalb kechinmalarini mohirona ifoda etadi. Uning “Da’vo” nomli she’rida ham daraxt obrazi qalb kechinmalarini o’z vujudiga ko’chiruvchi, u bilan birga nafas oluvchi jondosh, dildosh va sirdosh subyekt darajasiga ko’tarilgan:

Yuragim sevgidan gullagan paytlar

Gullashni daraxtga o’rgatgan edim.

Mening gullab yotgan ko’nglimga boqib,

Daraxt ham entikib gulladi so’lim. [7]

She’rdagi asosiy badiiy kashfiyot – subyekt va obyekt o’rtasidagi chegaraning butunlay yo’qolishi, ya’ni qalb va daraxtning bir butunlikka aylanishidir: “*Yuragim sevgidan gullagan paytlar / Gullashni daraxtga o’rgatgan edim*”. An’anaviy she’riyatda inson ko’proq tabiatdan andoza oladi, masalan, bahor kelgani uchun ko’ngil uyg’onadi. Halima Ahmedova poetikasida esa buning butunlay aksi – faol hissiy turtki va lirik ta’sir **insondan tabiatga ko’chadi**. Lirik qahramon ruhiyatidagi sevgi tuyg’usi shu qadar cheksiz, ma’naviy quvvati shunchalik balandki, u dilsiz deb qaraladigan daraxtga “gullash darsini” o’rgatadi. Bunda “gullash” so’zi o’z ma’nosidan ko’chib, zohiriy uyg’onish, ilohiy muhabbat ba ruhiy yuksalish metaforasiga aylanadi. Bu esa, ijodkorning mahzun she’rlariga ham o’ziga xos pafos bag’ishlashga xizmat qiladi, o’quvchida tushkun kayfiyat tug’dirmaydi.

Yurakda gul ochgan sevgi bog’ida

Yillarning shamoli nogoh berdi pand.

Gullashdan to’xtadi yuragim ammo

Daraxt hamon gullar menga nopisand. [7]

“Gullash darsini” insondan o’rgangan daraxt, endi ustozidan (insondan) o’zib ketadi. Inson yuragi hayot zarbalaridan charchab, tushkunlikka tushadi, undagi tuyg’ular so’nadi, ya’ni gullashdan to’xtaydi. Biroq u sadoqat darsini o’rgatgan daraxt esa gullashda davom etadi. Daraxtning “nopisand” ravishda gullashi tabiatning insondan daxlsiz, undan baland va uning g’am-hasratlaridan mustaqil ekanligini anglatuvchi **shaxslantirish usulidir**. Daraxt insonning tushkunligiga, uning sevgisiz qolganiga parvo qilmaydi; u o’z vujudiga singdirilgan o’sha ilohiy g’oyani – muhabbatni mardona davom ettiraveradi.

Denrar obrazlarni muhabbat mavzusi bilan parallel holda tasvirlash Nodir Afoqova ijodida ham kuzatiladi:

Tunning pardasini surib asabiy

Daraxtlar kelarlar shoshib men tomon.

Ey qadar! bu meni suyganingmi... qo’y...

Sozlamogda meni bu so’ngsiz hijron. [9]

H.Ahmedova ijodidan farqli o’laroq shoira daraxtlar obrazi vositasida lirik qahramonning ichki qiyofasi, ayriliq dardi va taqdir qarshisidagi isyonini ifodalagan. Muallif tashxis san’atining yuqori dinamik shaklini qo’llab, daraxtlarning “asabiy” tarzda tun pardasini surishi va lirik qahramon tomon “shoshib kelishi” tabiat borlig’ining inson ruhiyatidagi daxshatli po’rtanalar bilan qorishib ketganini ko’rsatadi. Bu o’rinda tabiat hamdard emas, u qahramonning ichki iztirobini uning yuziga solish, uning fojiasiga oyna tutish uchun qabr bag’ridan yoki zulmat qa’ridan qo’pib kelayotgan haybatli guvohlardir. Bu o’zbek adabiyotshunosligida kam o’rganilgan, modern she’riyatning yo’nalishlaridan biri bo’lgan **dendrar ekspressionizm** hodisasidir. [1] *Dendrar ekspressionizm* asosan, nemis she’riyati nuqtayi nazaridan o’rganilgan bo’lib, O.Badoi va H.Svift ta’limotlarida lirik qahramon ruhiy isyonining tashqi tabiatda aks etishi sifatida talqin qilinadi. [2, 4] Ekspressionistlar tabiatni realistik tarzda tasvirlash o’rniga, shu ruhdagi asarlarda daraxtlarni personaj yoki lirik

qahramonning ichki iztiroblarinini aks ettiruvchi mavjudotlar sifatida taqdim etadi. N.Afoqova ijodiga mansub yuqoridagi parchada ham ruhiyat va dendrar dunyo iztirob va taqdir hamohangligida birlashadi. Shoir dunoqarashida daraxtlar qahramon qalbini chirmab olgan asabiy va so'ngsiz hijron tuyg'usining tabiat bag'ridagi haybatli, harakatlanuvchi va daxshat soluvchi metaforik qiyofasi sifatida namoyon bo'ladi.

Natija. Ibodat Rajabova she'rlarida esa daraxt obrazlari mayin qishloq havosini dimoqqa keltirgandek, olisda qolgan bolalik xotiralari va sog'inchni ko'z o'ngimizda qayta jonlantirgandek bo'ladi. Uning “Beshiksoz”, “Gullayotgan o'rik”, “Yoz rangi”, “Kech kuz”, “Onamga xat”, “Daraxtlardan uzrimni so'ra...”, “Buxoroda gujumlar gulladi” kabi qator she'rlarida qoratal, nonjiyda, shamshod, baqaterak singari o'ziga xos dendrar birliklar nafaqat obraz va detal, balki peyzaj elementi sifatida ham alohida o'rin tutgan. Jumladan, shoiraning “Onam xotirasi” she'ri xalqona ruhda yozilgan bo'lib, folklorizmlardan mohirona foydalanilgan:

*Qaldirg'och ham ilonga oshna,
Ochilmasdan yotar dasturxon.*

Baqaterak baqrayib qoldi.

(Xo'rak izlab yurar palaxmon.)

Bolarilar yovvoyi yo'rg'a,

Gavhar emas shamshod yaproq'i.

Jala kuni ko'prik bo'lmaydi

Misqol pari kumush tarog'i. [12]

Yuqorida she'riy matnda folklor motivlari transformatsiyaga uchrab, mifologik va xalqona dunoqarashga butunlay teskari bo'lgan dunyo modeli chiziladi. Miflarda va ertaklarda qaldirg'och ezgulik, oila homiysi, ilon esa uning asriy dushmani, yovuzlik timsolidir. Shamshod xalq ertaklarida ko'p tilga olinuvchi shoxlari oltindan, barglari gavhar va zumraddan, mevalari yoqutdan bo'lgan “hayot daraxti” ko'rinishini o'zida ifodalaydi. Yana bir mifologik obraz “Misqol pari” ba uning “kumush tarog'i” bilan bog'lanadi. Xalq dostonlarida parining tarog'i mo'jizalar yaratishga, daryolardan ko'prik bo'lishga qodir afsonaviy vositadir. Biroq lirik qahramon ta'kidlashicha, real hayotdagi falokatlar paytida bu afsonalar, insonga yordam bera olmaydi, Inson o'iztirob va yolg'izligi qarshisida haqiqat bilan yakkama-yakka qoladi. Qaldirg'och va ilonning “oshna” (do'st) bo'lib qolishi, tiklik, bo'ychanlik timsoli bo'lgan baqaterakning o'z holatiga zid ravishda “baqrayishi”, afsonaviy hayot daraxtining barglari ortiq gavhardan emasligi – dunyoning o'z o'qidan chiqib ketganini, qadriyatlar tizimining ostin-ustun bo'lganini anglatuvchi lirik **mifopoetik ramzdir**. Zero, A.Sharopov yozganidek, “Tabiat hodisalari o'zicha emas, balki o'zga ma'noda berilsa, unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, u ramzga aylanadi. Albatta, bunda ramz badiiylikdan mahrum bo'lib qolmasligi kerak”. [7] Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo'llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma'noli bo'lsa, inson ruhiyati va tabiatdagi o'xshashlik bir-birini boyitadi va to'ldiradi. Shoir onasidan keyingi dunyoni shunday tasavvur qiladi. “Beshiksoz” she'ri esa asriy qadriyatlar, milliy hunarmandchilik madaniyati va inson-tabiat munosabatlarini dendrar mifopoetika hamda lirik realizm asosida yoritilgan go'zal namunalardan biri sanaladi.

Daraxtlarning po'stlog'in hidlab,

Yog'ochlarning qarichlab belin,

Terakzorga sovchiday borib,

Do'koniga tushirar “kelin”. [12]

She’rda hunarmand (beshiksoz) ba tabiat (terakzor) o’rtasidagi muloqot o’ziga xos milliy mentalitet insoniy mezonlar asosida quriladi. Beshiksoz terakzorga shunchaki o’tin yoki yog’och qidirib bormaydi, u yerga “sovcchiday” boradi. Teraklarni tanlash jarayoni kelin tanlash marosimiga qiyoslanadi. U xuddi qizning nafosatini his qilgandek daraxtlarning “po’stlog’ini hidlaydi”, sovcchilar kelin bo’lmishni ko’rganda, bo’y-basti-yu, sarvqomatligiga baho bergani singari yog’ochlarning “belini qarichlaydi”. Tanlab olingan eng sara va pokiza terak esa usta do’koniga “kelin” bo’lib tushadi. Bu o’rinda tashxis va metafora orqali daraxtga olijanoblik, poklik va bokiralik xususiyatlari yuklangan. Bu insonning tabiat unsurlariga nisbatan yuksak madaniy va estetik hurmatini ko’rsatadigan go’zal falsafiy konseptdir.

Qoratlolar ikkinchi umrin. / *Beshik qilib aylaydi obod.* [12]

Odatda xalq og’zaki ijodida qoratal salbiy ma’noda qo’llaniladi va undan tobut va motam marosimida hassakashlar uchun hassa tayyorlanadi. Daraxtning kesilishi uning biologik o’limi, tanazzuli hisoblanadi. Biroq shoira qoratalning xalq xotirasidagi o’lim ba motam bilan bog’liq sovuq qiyofasini oladi-da, uni hayot va tug’ilish timsoliga aylantiradi. Bu orqali “*o’lim elementidan hayot beshigini yaratish*” badiiy konsepsiyasi ilgari suriladi. Motam ramzi bo’lgan daraxt endi go’dak unib-o’sadigan, allalar aytiladigan muqaddas jismga aylangan holda “ikkinchi umrini” davom ettiradi.

Dendrar simbolizm va ijod falsafasining o’ta nozik, lirik uyg’unligini o’z ijodida aks ettira olgan yana shoira Laylo Sharipovadir.

Sizga dardin aytib anor yuzlari ol u,

Dardingizni tinglab sariq bo’lgan zardolu,

Daraxt bilan sirlashmoqlik ulug’ iqbol-ku,

Shoirlik bu valilikdir, insoniylik – tug’,

Shoirman deb aytmqlikka topgaysiz huquq. [14]

Shoira *husni ta’lil* ba tashxis san’atlarini o’zaro sintez qilib, tabiat qonuniyatlariga butunlay boshqacha majoziy ma’no yuklaydi. Pishganda qizil tusga kiradigan **anor** va sarg’ayadigan **zardolu**, ya’ni o’rik parchada ijodkorning ichki kechinmalariga sirdosh bo’lgan tirik subyektlar sifatida gavdalanadi. Anor shoirga o’z dardini aytib, uyatdan yoki ichki yonishdan “yuzlari ol” bo’ladi. Zardolu esa, aksincha, shoirning og’ir, g’amgin hasratlarini, dard-u g’uborlarini tinglagani sababli g’am-alamdan, achinishdan sarg’ayib ketadi. Biroq shoira lirik tafakkurida daraxt bilan tillashish, u bilan sirlashish “ulug’ iqbol”, ya’ni buyuk bir ma’naviy yuksalish, saodat belgisidir. Ehtimol, insonlar orasidagi soxtaliklardan charchagan shoir qalbi o’zining eng yuksak va toza sirlarini aynan dendrar olamga ochadi. Chunki, inson o’zini azaldan tabiat va uning bo’lagi daraxt vobastalikda his qilib qilib kelgan. “Ayol” she’rida ham bu obraz yer ko’ksida tomir otgan ildizi chuqur, shoxlari ko’kka uzangan daraxtga qiyoslanadi:

Ayol...

Ayol – daraxt, ildizi chuqur,

Yer ko’ksida tomirlab ketgan.

Duodagi qo’llari axir

Yetti ko’kka uzanib yetgan. [12]

Ayolga o’zbek mentalitetida ojiza sifatida qaraladi, biroq, L.Sharipova bu stereotipni parchalab, uni ildizlari yerning eng teran qatlamlariga, borliqning tub-tubiga qadar kirib borgan haybatli barhayot bir daraxt sifatida tasvirlaydi. U butun vujudi bilan ona zaminning bag’riga tomir otgan; hayotning poydevorini, millatning shajarasini hamda asriy qadriyatlar zanjirini mahkam tutib turgan asos sifatida namoyon bo’ladi. E’tiborli jihati, insoniyat tamaddunini

muvozanatda tutib turgan asosiy kuch erkak emas, balki ayolning bamisoli samoga bo'y cho'zgan daraxt shoxlaridek yuksalgan toza duolari ekanligiga majoziy ishora qilinadi. Bu esa “Ayol – daraxt” parallelizmi orqali hayotiy davomiylik asosi bo'lgan ekofeministik modelni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa. Halima Ahmedova, Nodira Afoqova, Ibodat Rajabova va Laylo Sharipova she'riyatidagi dendrar obrazlar tizimining badiiy-estetik tabiati hamda lirik-falsafiy semantikasini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish Buxoro adabiy muhitidagi xotin-qizlar lirikasining konseptual taraqqiyot tamoyillarini hamda o'zbek adabiyotshunosligida dendrar poetikaning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Nodira Afoqova va Halima Ahmedova she'riyatida tabiat unsurlari o'zbek dendrar poetikasida yangi yo'nalish – dendrar ekspressionizm fenomenini asoslaydi. Inson ko'nglidagi jo'shqinlik yoki fojiaiy hijron tashqi borliqdagi daraxtlar vujudida aks-sado beradi, bu esa tabiat va insonning ruhiy-psixologik integratsiyasini ta'minlaydi. Ibodat Rajabova ijodida xalq og'zaki ijodida salbiy ma'nolar bilan bog'lanadigan arxetiplar hayot, tug'ilish va “ikkinchi umr” metaforalari vositasida estetik jihatdan yangilangan. Laylo Sharipova she'rlarida esa daraxt bilan sirlasha olish shoirlik maqomining bosh sharti sifatida baholanadi. “Ayol – daraxt” parallelizmining yaratilishi hayotiy davomiylik asosi bo'lgan ekofeministik modelni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bonnellier R. Avant la nuit, quand point le jour: Heym, expressionnisme, psychanalyse //Topique. – 2019. – T. 146. – №. 2. – C. 181-193.
2. Badoi, O. (2021). A feeling for wood itself: Lynd Ward's arboreal modernism. Modernism/Modernity Print Plus, 6. <https://doi.org/10.26597/mod.0207>
3. Glotfelty C., Fromm H. (ed.). The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology. – University of Georgia Press, 1996.
4. Swift, H. (2023). An artistic nature: Kōno Michisei's Self-Portrait (1917). Ars Orientalis, 53. <https://doi.org/10.3998/ars.4987>
5. Ahmedova H. “Erk darichasi”. – T.: Adabiyot va san'at, 1996.
6. Ahmedova H. “Tiyramoh”. – T.: Adabiyot va san'at, 2005.
7. Ahmedova H. “Nigoh qiblasi”. – T.: Adabiyoti va san'at. 2011.
8. Куронов Д., Мамажонов, Шералиева . Адабиётшунослик луғати. – Toshkent: Fan ziyosi, 2024. – 156 b.
9. Rajabova M, Amonova Z., Qodirova N. Buxoro adabiy muhiti. – Toshkent: Fan ziyosi, 2024. – 156 b.
10. Sharopov A. Olamlar ichra olamlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.109.
11. Bakhronova, R. G. (2025). ECOCRITICISM–INTERDISCIPLINARY FIELD BETWEEN THE ENVIRONMENT AND LITERATURE. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(7), 124-126.
12. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibodat-rajabova-yangi-she'rlar-2.html>
13. [Nodira Afoqova. Yangi she'rlar | Xurshid Davron kutubxonasi](#)
Laylo sharipova telegram kanali: t.me/laylosharipova_ijodi

RIVOJLANTIRISH OMILLARI <i>Berdiyeva Umida G'oyibberdiyevna</i>	
VIRTUAL MASHHURLIK SINDIROMI VA OILAVIY ROLLARNING DEVALVATSIYASI <i>Axmedova Surayyo Sunnat qizi</i>	94
O'SMIRLARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA VA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Xudoyberdiyeva Yulduz Sharif qizi, Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopurjonovich</i>	99
YUQORI SINIF CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA JISMONIY SIFATLARNING O'RNI <i>Nurulloev Laziz Latipovich</i>	108
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHA, TARKIBIY KOMPONENTLAR VA MEZONLAR <i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	116
YOSHLARNI GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Raximova Aziza Kamolovna, Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopurjonovich,</i>	122
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH <i>Saidova Mahbuba Ayubovna</i>	131
MAKTAB O'QUVCHILARIDA STRESS VA DEPRESSIYA HOLATLARINI OLDINI OLISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI <i>Baxshullayeva Nilufar Olim qiz</i>	139
НАЧИМОСТЬ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ <i>Хаимова Нодира Бафоевна</i>	144
“INSON –GENERATIV SUN'IIY INTELLEKT” TIZIMIDAGI MULOQOTNING LINGVISTIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI (RUS TILIDAGI KO'RSATMALARGA ASOSLANGAN) <i>Atamurodova Sitara Jalilovna</i>	153
BOSHLANG'ICH MATEMATIKA TA'LIMIDA ARIFMETIK AMALLARNI O'QITISHDA METOLOGIK MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Ikromova Sevinch Elniyoz qizi</i>	161
JADID MAKTABLARINING PEDAGOGIK KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA TEXNOLOGIYALARI <i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	167
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR <i>Boboyev A'lonirzo To'lamirzayevich</i>	174
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA TANQIDIY FIKRLASH ASOSIDA O'QUVCHILARNING META-PREDMET KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI <i>Norkulova Dilorom Oybekovna</i>	181
Filologiya fanlari	
BUXOROLIK SHOIRALAR IJODIDA DENDRAR OBRAZLARINING BADIY-ESTETIK TALQINLARI <i>Rustamova Gavhar Bahron qizi</i>	191